

**QADIM VA O'RTA ASRLARDA NUROBOD VOHASI – MARKAZIY
SUG'DNING MADANIY CHORRAHASI: TARIXIY VA ARXEOLOGIK
TADQIQOTLAR, MADANIY ALOQALAR HAMDA SIVILIZATSIYALARARO
O'ZARO TA'SIRLAR**

Botirov Ilhomjon Rajab o'g'li

ORIENTAL UNIVERSITETINING 1-kurs talabasi.

Tel: 93 113 43 91, 99 953 94 91, E-mail: ilxomjonbotirov.1991@gmail.com

Orcid: 0009-006-2287-6136

*Ilmiy rahbar: SAMDU Professori: **Xolmatov Normuhammad O'rozovich**
Nurobod tumani MMTB ga qarashli 47-umumiy o'rta ta'lim maktabining
MMIBDO'si.*

Annotatsiya. Samarqand viloyatining tog' etagidagi kichik bir tumani hisoblanmish Nurobod bir qarashda viloyat tarixining nisbatan e'tiborsiz qolgan burchagidek ko'rinishi mumkin. Ammo davlat hisobiga olingan 55 ta yodgorlikka yaqinroq nazar tashlasak,, bu yerda bir necha ming yillik uzluksiz tarix borligini payqashimiz mumkin. Mazkur tadqiqot ishida yuqorida aytib o'tilgan ro'yxat birinchi marta yaxlit tarzda o'qib chiqilib, davrlarga ajratildi va sharhlandi. Shuningdek, Nurobod hududi nafaqat Zarafshon vodiysining tekislik qismi bilan tog'-adir mintaqasi orasidagi tabiiy o'tish zonasi vazifasini bajaradi. Balki turli davrlarda kaltaminorlik ovchi-baliqchilardan hisorlik chorvadorlargacha, sug'diylardan arab-islom ta'siriga qadar bir-biri bilan aloqador bo'lgan hudud ham bo'lgan. Shu bilan birga, Sazag'on madaniyati, Arabota nomida saqlangan xotira, tog' bag'ridagi Hazrat Dovud ziyoratgohi bularning barchasi shu haqida so'zlaydi. Tadqiqot ishini o'rganish davomida olingan ma'lumotlar Nurobod vohasini alohida tadqiqot ob'ekti sifatida chuqurroq o'rganishga asos bo'lib hizmat qila oladi.

Kalit so'zlar: Nurobod vohasi, Markaziy Sug'd, Sazag'on madaniyati, Kaltaminor, Hisor madaniyati, Buyuk ipak yo'li, Arabota, Somoniylar, Qorahoniylar, Temuriylar, ziyoratgoh, madaniy chorraha, sivilizatsiyalararo aloqalar.

Abstract. At first glance, Nurobod - a small district at the foot of the mountains in Samarkand region - may appear to be a rather overlooked corner of the region's history. Yet a closer look at the 55 monuments registered by the state reveals that this area holds several millennia of continuous history. In this research, the above-mentioned list was, for the first time, read as a unified whole, divided into chronological periods, and interpreted. The findings show that the Nurobod area functions not only as a natural transitional zone between the plains of the Zarafshan valley and the mountain-foothill region, but has also, across different eras, been a territory of contact - from Kaltaminor hunter-fishers to Hisar herders, from the Sogdians to Arab-Islamic influence. The Sazagon culture, the memory

preserved in the name Arabota, and the Hazrat Dovud shrine nestled in the mountainside all speak to this. The data obtained in the course of this study can serve as a foundation for a deeper, dedicated study of the Nurobod oasis as an independent research object.

Keywords: Nurobod oasis, Central Sogdiana, Sazagon culture, Kaltaminor, Hisar culture, the Great Silk Road, Arabota, the Samanids, the Karakhanids, the Timurids, shrine, cultural crossroads, inter-civilizational contacts.

Аннотация. Нуробод - небольшой район у подножия гор в Самаркандской области - на первый взгляд может показаться довольно незаметным уголком в истории региона. Однако при более пристальном рассмотрении 55 памятников, состоящих на государственном учёте, становится ясно, что здесь сохранилась непрерывная многотысячелетняя история. В данном исследовании указанный перечень впервые был рассмотрен как единое целое, разделён на хронологические периоды и проанализирован. Выяснилось, что территория Нуробода служит не только естественной переходной зоной между равнинной частью Зарафшанской долины и горно-предгорным районом, но и на протяжении разных эпох была местом соприкосновения различных групп - от охотников-рыболовов кельтеминарской культуры до гиссарских скотоводов, от согдийцев до арабо-исламского влияния. Об этом свидетельствуют культура Сазагон, память, сохранившаяся в названии Арабата, а также святилище Хазрат Довуд в горах. Полученные в ходе исследования данные могут служить основой для более глубокого, самостоятельного изучения Нурободского оазиса.

Ключевые слова: Нурободский оазис, Центральный Согд, культура Сазагон, кельтеминарская культура, гиссарская культура, Великий шёлковый путь, Арабата, Саманиды, Караханиды, Тимуриды, святилище, культурный перекрёсток, междивилизационные контакты.

Kirish. Sug'd tarixi haqida so'z ketganda, e'tibor odatda Afrosiyob, Ko'ktepa yoki Yerqo'rg'on kabi yirik shahar markazlariga qaratiladi. Bu tushunarli holat albatta, chunki aynan ular davlatchilik va shaharsozlik jarayonlarining asosiy guvohi hisoblanadi. Biroq har qanday poytaxt yoki yirik markaz atrofida o'nlab kichik tumanlar bo'lgan, ular esa ko'pincha ilmiy adabiyotda soyada qolib ketadi. Samarqanddan janubga, Zarafshon tizmasining shimoliy yon bag'irlariga tomon yo'l olinsa, aynan shunday e'tibordan chetda qolgan hududlardan biriga ya'ni, Nurobod vohasiga duch kelinadi. Bu voha bir tomondan Zarafshon daryosining serhosil dehqonchilik mintaqasiga, ikkinchi tomondan Qoratepa-Ziyovuddin tizmasining tog'-adir olamiga tutashadi. Aynan shu geografik xususiyat tufayli bu yerdagi turmush tarzi ham bir xilda qolmagan. Ya'ni, goh dehqonchilik, goh chorvachilik, ba'zan ikkalasi aralash kechgan. Bundan tashqari, tuman hududidan o'tgan yo'llar, geografik joylashuvga qaraganda, Samarqand Sug'dini janubdagi Qashqadaryo


vohasi bilan bog'lagan bo'lishi mumkin. Biroq shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu taxmin hozircha maxsus yo'l-tarixiy hujjat yoki karvon marshruti tavsifi bilan tasdiqlanmagan. Balki hududning relyefi va qo'shni vohalarga nisbatan joylashuvidan kelib chiqqan mantiqiy farazdir. Muammo shundaki, tumanning rasmiy ro'yxatidagi 55 ta yodgorlik eng qadimgi Sazag'on maskanlaridan tortib, XVII–XIX asrlarga oid Oq masjid va Hazrat Dovud g'ori ziyoratgohigacha hozirgacha yaxlit holatda o'rganilmagan. Ular odatda turli hisobotlarda alohida-alohida tilga olinadi. Shuni ham unutmaslik kerakki, bu ro'yxatning o'zi tuman hokimligi tomonidan tuzilgan ma'muriy hujjat hisoblanadi. Undagi davrlashtirish arxeologik qazishma yoki ilmiy ekspertiza natijasi emas, balki avvalgi tekshiruvlar asosida berilgan ma'lumotlardir.

Tadqiqotning maqsadi

Nurobod tumani bo'yicha rasman tasdiqlangan yodgorliklar ro'yxatini tarixiy-qiyosiy va xronologik-tipologik tahlildan o'tkazish orqali vohaning qadim va o'rta asrlardagi madaniy aloqalar tizimidagi taxminiy o'rnini, shuningdek unda uchraydigan sivilizatsion ta'sirlar ya'ni, ko'chmanchi-o'troq, mahalliy-islom, Sug'd-Baqtriya-Xorazm izlarini aniqlashdan iboratdir.

Asosiy qism. Nurobod tumani Samarqand vohasining janubiy chekkasida, Zarafshon daryosining sug'oriladigan yerlari bilan Qoratepa-Ziyovuddin tog' tizmasining adirlari orasida joylashgan. Bunday joylashuv tasodifiy emasdek tuyuladi. Aynan shu chegara zonasida ikki xil xo'jalik-madaniyat turi - tekislikdagi dehqonchilik va tog'dagi chorvachilik - doimo bir-biriga yaqin turgan, goh qo'shnichilik, goh raqobat, lekin har doim aloqa shaklida. Yuqorida aytilganidek, tuman orqali Samarqandni Qashqadaryo tomon bog'lovchi yo'lning o'tgan-o'tmaganligi haligacha maxsus tasdiqlanmagan faraz bo'lib qolmoqda. Biroq relyef xususiyatlari bu farazni inkor etmaydi. Nurobod tumaniga qarashli Sazag'on qishlog'i atrofida topilgan mezolit-neolit davri maskanlari (Sazag'on-1, Sazag'on-2, Tapaqul, Jangal va boshqalar) ilmiy adabiyotda alohida nom bilan - "Sazag'on madaniyati" deb tanilgan[3.B. 6–9.]. Mutaxassislar bu jamoalarning tosh qurollariga xos xususiyatlarni tahlil qilib chiqishgan. Ularni Qizilqumdagi kaltaminorliklar va Janubiy O'zbekiston-Tojikiston hududidagi hisorliklar bilan qo'shnichilik aloqasida bo'lgan deb hisoblashadi[4. B. 9–12.]. Bu esa hali yozuv paydo bo'lmagan davrlardayoq turli guruhlar orasida aloqa mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Bundan tashqari, tumanning Jom qishlog'i tevarigidan jez davriga oid buyumlar va qadimiy qabriston ham topib o'rganilgan. Shu ma'noda, vohaning "chorraha" xususiyati tosh va jez davridayoq shakllana boshlagan. Xususan, ro'yxatdagi Kultepa (mil. avv. I asr) va Kattatepa (mil. avv. II–I asrlar), shuningdek Sazag'on qishlog'idagi antik davrga oid qal'a hamda Bo'ysaritepa (II–IV asrlar) bularning barchasi antik davr oxiri va ilk o'rta asrlar boshida vohada mustahkamlangan qishloq xo'jalik manzilgohlari tarmog'i shakllanganidan darak beradi. Bunday manzilgohlar tipologik jihatdan Sug'dning boshqa hududlarida masalan, Ko'ktepa yoki

Yerqo'rg'on atroflarida uchraydigan namunalarga o'xshaydi. Biroq shuni yodda tutish lozimki, bu o'xshashlik tashqi ko'rinish darajasidagi taqqoslash natijasidir. Nurobod ro'yxatidagi 50 ta arxeologik ob'ektning taxminan yarmi aniqrog'i, ro'yxatda ko'rsatilgan sanalarga ko'ra qariyb 30 tasi to'liq yoki qisman aynan IV–VIII asrlarga oid deb belgilangan (Qo'rg'ontepa, Avliyobobotepa, Ulustepa, Sayltepa, Imomtepa, Kechkeldiktepa turkumi, Ajrimotatepa, Saritepa, Beshtoltepa, Kichikqo'rg'ontepa, Sazag'on I–III, Yettitepa I–II, Qo'chqorotatepa, Eshottepa va boshqalar). Quyidagi diagrammada bu taqsimot sxematik tarzda ko'rsatilgan. Ular vohaning aynan shu davrda arab bosqinidan oldingi so'nggi asrlarda nisbatan zich o'zlashtirilgan bo'lishi mumkinligiga ishora qiladi. Bunday manzara, ehtiyotkorlik bilan aytganda, Panjikent atrofidagi kichik istehkomli dehqon xo'jaliklari tizimiga qandaydir tarzda yaqin turadi. Biroq bu o'xshashlikni qat'iy xulosa emas, balki keyingi tadqiqotlar uchun faraz sifatida qabul qilish to'g'riroq bo'ladi.



1-rasm. Nurobod tumani ro'yxatidagi yodgorliklarning ro'yxatda ko'rsatilgan sanalar bo'yicha sxematik taqsimoti (n=55).

Shuningdek, VII asr oxiri – VIII asrda arab istilosi va u bilan birga kelgan islom dini Sug'd madaniy qiyofasiga chuqur ta'sir ko'rsatgani ma'lum. Nurobod misolida bu jarayonning bilvosita izlarini nomlar orqali kuzatish mumkin. Arabota qishlog'ining nomi, shu yerdagi X asrga oid Arabota manzilgohi va XI asrga oid Arab ota maqbarasi bularning barchasi mahalliy xalq xotirasida islom targ'ibotchilari haqidagi eslatmani saqlab qolgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Bunday nom-xotira hodisasi, aytish mumkinki, Buxoro tomonlaridagi Xoja Ka'bul Ahbor kabi ziyoratgohlarda kuzatiladigan umumiy mintaqaviy an'anaga qisman o'xshaydi[11], garchi bu ikki holat o'rtasidagi bog'liqlik ham hozircha faraz darajasida qolmoqda. Shu bilan birga, Ibrohimota, Rabottepa (ikkalasi ham IX–XII asrlar) va Sazag'on-IV (X–XI asrlar) kabi manzilgohlar nomlanishi («rabot» - karvonsaroy ma'nosida) Somoniylar-Qorahoniylar davrida voha savdo yo'llari tizimiga bog'liq bo'lganini xulosa qilishga asos bo'ladi. Tumanda ro'yxatga olingan beshta me'moriy yodgorlikning barchasi diniy-ma'naviy xarakterga ega bo'lgan. Ostona bobo majmuasi

(masjid, maqbara, hovuz - XVII asr), Jom qishlog'idagi eski masjid va qabriston (XVII–XIX asrlar), Oq masjid (XV–XVI asrlar), Sarbozordagi "Oq masjid" (XVII asr) va Hazrat Dovud g'ori ziyoratgohi (XVII–XIX asrlar). Oxirgisi alohida e'tiborga loyiqdir. Ya'ni, tog' g'orida joylashgan bu ziyoratgoh, ko'p ehtimol, Markaziy Osiyoda keng tarqalgan Samarqanddagi Xoja Doniyor yoki Oshiqon g'orlari kabi payg'ambarlar nomi bilan bog'liq muqaddas g'orlar an'analarining mahalliy ko'rinishidir. Tadqiqotchilarning fikricha, bunday g'or-ziyoratgohlar ko'pincha islomdan oldin ham muqaddas hisoblangan tabiiy joylarning keyinchalik islomlashgan davomi bo'lishi mumkin[7.B. 16–17.]. Shunga asoslangan holda, Hazrat Dovud g'ori orqali Nurobod vohasida qadimiy e'tiqod bilan islom tasavvufi o'rtasida madaniy uzilish emas, balki asta-sekin davomiylik yuz bergan bo'lishi mumkin deb ayta olamiz. Biroq buni yakuniy xulosa emas, balki keyingi etnografik-tarixiy tadqiqot uchun asos faraz sifatida qabul qilish to'g'riroq bo'ladi.

Ushbu ishning Nurobod tumanining rasman ro'yxatga olingan 55 ta yodgorligi ilk marta yagona xronologik jadvalga tizib chiqildi, bu esa aholi turmushining milodan avvalgi davrdan XIX asrgacha qanday davom etganini raqamlar orqali ko'rsatib berdi, Sazag'on madaniyatining Kaltaminor va Hisor madaniyatlari bilan chegaradosh joylashuvi endi alohida qiziqarli fakt emas, balki Nurobod vohasining yaxlit "madaniy chorraha" tushunchasining tarkibiy qismi sifatida talqin qilindi, Arabota va Arab ota maqbarasi kabi nomlar, shuningdek Hazrat Dovud g'ori mintaqaviy islom-sug'd sintezining mumkin bo'lgan dalili sifatida birinchi bor shu nuqtai nazardan ko'rib chiqildi. Xususan, bu yodgorliklarning birinchi marta yagona mantiqiy tizimga solinishining o'zi ilgari ular faqat tarqoq holda, bir-biriga bog'lanmagan tarzda tilga olinar edi. Hozir bu ish mustaqil ilmiy natija hisoblanadi.

Xulosa. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, Nurobod vohasi qadim va o'rta asrlarda Markaziy Sug'dning o'ziga xos madaniy chorrahasi bo'lgan deb ayta olamiz. Bunga sabab, ehtimol, vohaning tabiiy joylashuvi bo'lgan: tekislik dehqonchiligi bilan tog'-adir chorvachiligi orasida, Samarqand Sug'dini Qashqadaryo bilan bog'lashi mumkin bo'lgan yo'lakda turishi. Aynan shu joylashuv turli xo'jalik va madaniy an'analarning bir-biriga tutashishiga sharoit yaratgan bo'lishi ehtimoldan yiroq emas. Bu jarayon Sazag'on davridagi qo'shni madaniyatlar bilan aloqadan boshlanib, antik davr istehkomli qishloqlari, so'ng Sug'd feodal davrining nisbatan zich manzilgohlar tarmog'i, keyin Somoniylar-Qorahoniylar davridagi islom-mahalliy sintez izlari orqali davom etib, Temuriylar-Shayboniylar davridagi masjid va ziyoratgohlarda o'ziga xos yakunini topgan ko'rinadi. Kichik bir tuman misolida, bir necha ming yillik uzluksiz madaniy taraqqiyot izini kuzatishimiz mumkin. Shular asosida quyidagi takliflarni berib o'tamiz:

1. Nurobod tumani yodgorliklari bo'yicha mustaqil arxeologik dala tadqiqotlarini tashkil etish va mavjud sanalarni ilmiy jihatdan tasdiqlash,

2. Sazag'on madaniyati maskanlarida yangi qazishma ishlarini davom ettirish; tuman yodgorliklarini to'liq pasportlash va GPS-koordinatalar tizimiga kiritish, shu asosda haqiqiy kartografik tahlil imkonini yaratish,

3. Arabota va Hazrat Dovud g'ori kabi ob'ektlarni ilmiy-ma'rifiy turizm marshrutlariga qo'shishdan oldin ularning tarixiy-diniy ma'nosini mutaxassislar yordamida aniqlashtirish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Samarqand viloyati hokimligi. Nurobod tumani bo'yicha moddiy-madaniy meros ob'ektlari ro'yxati (arxeologiya, me'morchilik) - ma'muriy hujjat.

2. Viloyatdagi tarixiy-madaniy yodgorliklar va muzeylar // Samarqand viloyati hokimligining rasmiy sayti, samarkand.uz.

3. Jo'raqulov M.J., Jo'raqulova D.M. Samarqand hududining eng qadimgi madaniyat tarixi sahifasi // Samarqand shahrining umumbashariy madaniy taraqqiyot tarixida tutgan o'рни. Xalqaro ilmiy simpozium materiallari. – Toshkent–Samarqand: Fan, 2007.

4. Holmatov N.U. Samarqand hududi bilan bog'liq joylar: tosh davri jamoalari moddiy madaniyati // O'sha to'plam. – Toshkent–Samarqand: Fan, 2007.

5. Sayfullayev B.K., Toshkenbayev N.X. Drevneyshiye kul'tury srednego techeniya Zarafshana // O'sha to'plam. – Toshkent–Samarqand: Fan, 2007.

6. Sag'dullayev A.S. Samarkand v sisteme drevney urbanizatsii // O'sha to'plam. – Toshkent–Samarqand: Fan, 2007.

7. Isamiddinov M.X. K voprosu o vozniknovenii drevnego goroda na Afrasiabe // O'sha to'plam. – Toshkent–Samarqand: Fan, 2007.

8. Rapen K. Koktepa v period jeleznogo veka do prixoda Axemenidov // O'sha to'plam. – Toshkent–Samarqand: Fan, 2007.

9. Jo'raqulov M.J., Holmatov N.U. Mezolit i neolit Srednego Zarafshana. – Toshkent, 1991.

10. Toshkenbayev N.X., Sulaymonov R.X. Kul'tura drevnekamennogo veka doliny Zarafshana. – Toshkent, 1980.

11. Salim Buxoriy Sadriddin. Buxoroning tabarruk ziyoratgohlari. – Buxoro, ziyouz.com elektron nashri.

12. Paxtachi tumani rasmiy sayti. Tuman tarixi (Ziyovuddin vohasi tarixiy ma'lumotlari), paxtachi.uz.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-sentyabrdagi 792-son "Arxeologik tadqiqotlarni tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi qarori.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrdagi PQ-4068-son "Moddiy-madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan yaxshilash to'g'risida"gi qarori.